

Namangan viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Oʻzbekiston Respublikasi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 27 528,5 mlrd soʻmni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 25 704,3 mlrd soʻmni, oʻrmon xoʻjaligi – 1 708,9 mlrd soʻmni, baliqchilik xoʻjaligi – 115,3 mlrd soʻmni tashkil qildi.

Namangan viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻsish surʼati



II. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Yangiqoʻrgʻon (3 978,0 mlrd soʻm), Chust (2 600,8 mlrd soʻm), Pop t (2 457,2 mlrd soʻm), Namngan sh (2 403,7 mlrd soʻm), Namngan t (2 385,6 mlrd soʻm) va Uchqoʻrgʻon (2 327,0 mlrd soʻm) tumanlarida qayd etildi.



Aksincha kam hajmga ega hududlarga Chortoq tumani (1 912,0 mlrd so'm), Norin tumani (1 696,2 928,4 mlrd so'm) va Kosonsoy tumanini (1 527,7 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Namangan viloyati	27 528,5	103,8
Namangan sh.	2 403,7	103,0
Mingbuloq	2 117,8	110,8
Kosonsoy	1 527,7	102,0
Namangan	2 385,6	102,9
Norin	1 696,2	105,1
Pop	2 457,2	105,4
To'raqo'rg'on	2 022,8	104,5
Uychi	2 099,7	103,6
Uchqo'rg'on	2 327,0	103,2
Chortoq	1 912,0	102,8
Chust	2 600,8	103,4
Yangiqo'rg'on	3 978,0	101,5

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Mingbuloq (110,8 %), Pop (105,4 %), Norin (105,1 %) va To'raqo'rg'on (104,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Yangiqo'rg'on (101,5) Chortoq (103,4 %), Kosonsoy (102,0 %), Namangan t (102,9 %), Uchqo'rg'on (103,2 %) va Chust (103,4 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 25 475,6 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 12 067,8 mlrd so'mni (103,8 %), chorvachilik mahsulotlari 13 407,9 mlrd so'mni (103,5 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Yangiqo'rg'on (3 882,6 mlrd so'm), Chust (2 442,5 mlrd so'm), Pop (2 303,7 mlrd so'm) va Namangan t (2 286,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kosonsoy tumani (1 279,3 mlrd so'm), Norin tumanini (1 621,9 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Mingbuloq (110,9 %), Pop (105,3 %) va Norin (105,0 %) tumanlarida qayd etildi. Yangiqo'rg'on (101,4 %), Chortoq (102,7 %) va Kosonsoy (102,0 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 69,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 26,6 % i fermer xo'jaliklariga, 4,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Yangiqo'rg'on (1 758,0 mlrd so'm), Chust (1 435,5 mlrd so'm), Uchqo'rg'on (1 134,7 mlrd so'm) va Namangan t (1 027,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Chortoq tumani (700,0 mlrd so'm), Kosonsoy tumani (818,9 mlrd so'm) va Uychi tumanini (864,6 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Namangan t (104,1 %), Yangiqo'rg'on (106,1 %), Uchqo'rg'on (103,9 %), tumanlarida qayd etildi. Kosonsoy (101,9 %), To'raqo'rg'on (101,9 %) va tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 148 760,0 tonna go'sht, 642 716,0 tonna sut, 556 491,0 ming dona tuxum, 1 471,0 tonna qirqib olingan jun, va 5 236,3 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,9 % ni, sog'ib olingan sut – 100,2 % ni, olingan tuxum – 108,4 % ni, qirqib olingan jun – 102,6 % ni, hamda ovlangan baliqlar – 109,4 % ni tashkil qildi.

2025-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 6,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 84,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga,



8,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 5,5 % i fermer xo'jaliklari, 93,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2025-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-sentabr 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), tonna	148 760	101,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	10 203	107,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	125 305	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	13 252	108,3
Sut, tonna	642 716,0	100,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	35 542,0	108,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	601 602,0	99,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5 572,0	93,0
Tuxum, ming. dona	556 491	108,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	179 541	108,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	158 694	97,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	218 256	117,6
Jun, tonna	1 471	102,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	89	97,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 346	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	36,0	400,0
Baliq, tonna	5 236	109,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3 509	109,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	34,0	113,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 693	109,8



Shu bilan birga, olingan tuxumning 32,3 % i fermer xo'jaliklariga, 28,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 39,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 6,1 % i fermer xo'jaliklari, 91,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 2,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 67,0 % i fermer xo'jaliklariga, 0,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 32,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Namangan viloyati	148 760	642 716,0	556 491
Namangan sh.	24 858	59 380,5	11 418
Mingbuloq	10 775	37 871,7	21 700
Kosonsoy	8 479	41 451,4	93 157
Namangan	11 410	53 368,8	141 516
Norin	8 620	51 725,2	20 536
Pop	10 609	48 271,7	26 200
To'raqo'rg'on	9 479	51 272,4	55 187
Uychi	9 947	37 760,4	98 372
Uchqo'rg'on	14 626	46 282,0	12 732
Chortoq	7 250	43 013,5	26 582
Chust	13 115	94 820,0	30 162
Yangiqo'rg'on	19 593	77 498,4	18 931

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Yangiqo'rg'on (2 124,5 mlrd so'm), Pop (1 306,7) Uchqo'rg'on (1 098,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Namangan sh. (76,4 mlrd so'm), Kosonsoy tumanini (460,4 mlrd so'm) va Norin tumanini (740,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Hududlar kesimida yetishtirilgan don hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	629 974	109,9
Namangan sh.	611	102,0
Mingbuloq	99 480	115,2
Kosonsoy	23 015	104,9
Namangan	52 626	112,4
Norin	48 800	118,5
Pop	129 609	107,1
To'raqo'rg'on	49 755	105,8
Uychi	47 508	112,0
Uchqo'rg'on	76 650	109,0
Chortoq	25 324	114,8
Chust	53 301	105,9
Yangiqo'rg'on	23 295	100,5

Yetishtirilgan don mahsulotlarning umumiy hajmining eng yuqori ulushi Pop tumani (20,6 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Mingbuloq (15,8 %), Uchqo'rg'on (12,2 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Namangan sh. (0,1 %), Yangiqo'rg'on (3,7 %) va Kosonsoy tumanida (3,7 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan kartoshka hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	298 991,5	96,8
Namangan sh.	231,2	247,0
Mingbuloq	9 772,9	97,6
Kosonsoy	10 046,8	106,5
Namangan	25 073,0	97,2
Norin	23 900,9	96,3
Pop	13 764,3	97,1
To'raqo'rg'on	20 578,9	95,8
Uychi	13 792,1	98,9
Uchqo'rg'on	23 508,0	100,0
Chortoq	26 978,3	99,3
Chust	32 125,5	94,9
Yangiqo'rg'on	99 219,6	94,7



Yetishtirilgan kartoshka umumiy hajmining eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on tumani (33,2 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Chust (10,7 %), Chorotoq (9,0 %), Namangan t (8,4 %) va Norin (8,0 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Namnagn sh. (0,1 %), va Mingbuloq tumanida (3,3 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	719 067,8	91,2
Namangan sh.	7 281,9	94,7
Mingbuloq	29 115,6	90,1
Kosonsoy	31 323,7	91,5
Namangan	106 073,4	90,8
Norin	41 340,9	91,0
Pop	60 181,8	90,1
To'raqo'rg'on	40 681,5	89,9
Uychi	67 072,9	90,3
Uchqo'rg'on	76 145,0	91,4
Chortoq	75 123,2	91,5
Chust	54 302,6	91,3
Yangiqo'rg'on	130 425,3	92,8

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on tumani (18,1 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Namnagan t (14,8%), Uchqo'rg'on (10,6%), Chorto'q (10,4%), tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Mingbuloq(4,0%), Namangan sh. (1,0 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan Poliz hajmi

	Tonna	o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	99 461,9	124,1
Namangan sh.	64,0	213,3
Mingbuloq	20 465,2	118,8
Kosonsoy	2 090,6	112,6
Namangan	8 021,7	151,1
Norin	13 725,7	120,8
Pop	10 940,3	131,1
To'raqo'rg'on	4 648,7	145,9
Uychi	9 858,6	145,6
Uchqo'rg'on	10 392,5	125,2
Chortoq	7 665,9	102,1
Chust	7 253,5	113,6
Yangiqo'rg'on	4 335,2	111,3

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Mingbuloq tumani (20,6 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Norin (20,8 %), Pop (11,0%), Uchqo'rg'on (10,4 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Namangan (0,0 %), Kosonsoy (2,1 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan meva va rezavorlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	244 079,1	102,5
Namangan sh.	3 945,8	91,9
Mingbuloq	7 273,9	110,4
Kosonsoy	10 961,2	97,6
Namangan	19 093,6	101,4
Norin	8 290,1	103,6
Pop	14 440,3	108,5
To'raqo'rg'on	21 197,6	106,0



Uychi	18 988,6	103,1
Uchqo'rg'on	9 094,2	107,3
Chortoq	37 476,6	103,3
Chust	21 973,0	100,4
Yangiqo'rg'on	71 344,2	100,9

Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmining eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on tumani (29,2 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Chortoq (15,4 %), Chust (9,0 %), To'raqo'rg'on (8,7 %), tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Namangan sh. (1,6 %), Mingbuloq tumanida (3,0 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan uzum hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	97 619,8	105,6
Namangan sh.	325,2	66,9
Mingbuloq	1 130,1	100,8
Kosonsoy	2 723,3	95,4
Namangan	9 506,7	101,8
Norin	1 779,9	104,0
Pop	2 749,9	101,3
To'raqo'rg'on	17 238,0	118,4
Uychi	9 233,5	112,7
Uchqo'rg'on	4 432,0	102,6
Chortoq	6 924,7	106,5
Chust	7 440,9	100,0
Yangiqo'rg'on	34 135,6	102,8

Yetishtirilgan uzum hajmining eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on tumani (35,0 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush To'raqo'rg'on (21,0 %), Yangiqo'rg'on (15,0 %), To'raqo'rg'on (17,7 %), Namangan T (9,7 %) va Uychi (9,5 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Namangan sh. (0,3%) Norin (1,8 %), tumanida kuzatildi.



IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-oktyabr holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 797 989 boshga yetdi, (2024-yilning 1-oktyabr holatiga nisbatan 1,4 % ga ko'p), sigirlar 259 060 boshga (0,2 % ga kam), qo'y va echkilar 859 748 boshga (1,3 % ga ko'p), parrandalar 7 649 768 boshga (14,2 % ga ko'p) yetdi.

2025-yilning 1-oktyabr holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	797 989	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	48 272	103,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	733 978	100,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	15 739	159,7
shundan sigirlar	259 060	99,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	23 135	107,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	230 073	97,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5 852	227,5
Qo'y va echkilar	859 748	101,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	67 334	104,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	784 507	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7 907	158,8
Otlar	7 465	101,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 108	106,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	6 252	101,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	105	91,3



Parrandalar	7 649 768	114,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 325 211	113,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 228 493	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 096 064	127,6

2025-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,0 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 8,9 % i fermer xo'jaliklariga, 88,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 7,8 % i fermer xo'jaliklariga, 91,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 30,4 % i fermer xo'jaliklariga, 29,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 40,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025-yilning 1-oktabr holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Namangan viloyati	797 989	859 748	7 649 768
Namangan sh.	75 987	129 256	299 584
Mingbuloq	54 431	30 133	358 486
Kosonsoy	57 964	64 423	1 301 478
Namangan	54 906	39 659	1 168 713
Norin	50 352	43 712	231 628
Pop	73 686	125 835	482 622
To'raqo'rg'on	73 132	59 653	963 054
Uychi	55 513	45 815	1 121 156



Uchqo'rg'on	74 985	45 924	642 236
Chortoq	71 745	62 077	437 519
Chust	85 217	138 819	292 134
Yangiqo'rg'on	70 071	74 442	351 158

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.



Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
A. Ayubjanov
69 227-84-82 (5110)

Manzil:
